

" Comply or explain " ("Rioya qil yoki tushuntir") tamoyili bo'yicha ma'lumot

Korporativ boshqaruv kodeksining 10-bandiga binoan, Kodeksning ayrim tavsiyalariga rioya qilishning iloji bo'lmasa, aksiyadorlik jamiyati "comply or explain" ("Rioya qil yoki tushuntir") xalqaro tamoyiliga amal qilgan holda sabablarni to'liq ochib beradi.

Kodeksning 19-moddasining 8-bandiga binoan, jamiyat Ustavida jamiyatning oddiy aksiyalarining kamida 1% egalariga Kuzatuv kengashi majlisini chaqirishni talab qilish va kun tartibi, foydani taqsimlash, boshqaruv va nazorat organi a'zolariga o'z nomzodini ko'rsatish bo'yicha takliflar kiritish huquqi nazarda tutilishi kerak (umumiy yig'ilish o'tkazilgunga qadar almashtirish imkoniyati bilan).

Bundan tashqari, Kodeksning 19-moddasi 9-bandiga binoan Jamiyatning alohida ichki hujjati ovoz berish paytida aksiyadorlarning, shu jumladan, minoritar aksiyadorlarning qo'shma pozitsiyasini shakllantirish uchun aksiyadorlik shartnomasini tuzish imkoniyatini nazarda tutishi kerak.

"UzAssets investitsiya kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyatida minoritar aksiyadorlar mavjud emasligi hamda Jamiyat O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan to'liq huquqlarga ega bo'lgan 100 foiz ovoz beruvchi aksiyalarga egalik qiluvchi Iqtisodiyot va moliya vazirligi yagona aksiyador hisoblanishini nazarda tutgan holda, Kodeksning yuqorida ko'rsatilgan tavsiyalari bajarilmasligiga sabab bo'lishini ma'lum qiladi.